


## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



2023-yilning yanvar-dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi



### Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


#### Dastlabki ma'lumotlar

- 2023-yilning yanvar-dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi 66,0 % ni tashkil etdi.
- Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 7,2 birlikni tashkil qildi.
- 2023-yilning yanvar-dekabrda 4 185 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,5 foizga kam.



### 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

#### Yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 1 792 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 301 ta, sanoatda 860 ta, qurilishda 290 ta, yashash va ovqatlanishda 171 ta, tashish va saqlashda 204 tani tashkil etilgan.

**Xususiy tadbirkorlik subyektlarining  
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2022-y.	2023-y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	39 038	24 381	-14 657
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	5 406	4 185	-1 221
<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:</i>				
YAHM	%	69,5	66,0	-3,5
Sanoat	%	22,4	22,0	-0,4
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	96,3	96,1	-0,2
Investitsiya	%	59,0	72,0	13,0
Qurilish	%	93,8	96,0	2,2
Chakana savdo	%	93,9	93,8	-0,1
Xizmatlar	%	66,0	65,3	-0,7
Yuk tashish	%	94,5	95,2	0,7
Yuk aylanmasi	%	73,9	74,6	0,7
Yo'lovchi tashish	%	96,6	98,0	1,4
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,4	97,4	0,0
Eksport	%	38,3	29,4	-8,9
Import	%	11,0	16,0	5,0



**2023-yilning yanvar-dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**


<b>YAHM</b> 66,0 %	<b>Savdo</b> 93,8 %
<b>Sanoat</b> 22,0 %	<b>Qurilish</b> 96,0 %
<b>Investitsiya</b> 72,0 %	<b>Eksport</b> 29,4 %
<b>Xizmatlar</b> 65,3 %	<b>Import</b> 16,0 %

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	(+;-)
<b>Andijon viloyati</b>	<b>5 406</b>	<b>4 185</b>	<b>-1 221</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	1 033	966	-67
Xonobod sh.	70	44	-26
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	260	224	-36
Andijon	517	419	-98
Baliqchi	584	241	-343
Bo'ston	168	201	33
Buloqboshi	165	133	-32
Jalaquduq	205	174	-31
Izboskan	286	226	-60
Ulug'nor	102	130	28
Qo'rg'ontepa	303	228	-75
Asaka	437	326	-111
Marhamat	256	243	-13
Shahrixon	416	250	-166
Paxtaobod	304	188	-116
Xo'jaobod	300	192	-108



**2023-yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 23,1 % Andijon tumani 10 %, Asaka tumani – 7,8 %, Shahrixon tumani - 6 %, Marhamat tumani – 5,8 %, Oltinko'l tumani – 5,4 % va Baliqchi tumani – 5,8 % ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
<b>Jami</b>	<b>5 406</b>	<b>4 185</b>	<b>-1 221</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 213	301	-912
Sanoat	1 062	860	-202
Qurilish	260	290	30
Savdo	1 881	1792	-89
Tashish va saqlash	164	204	40
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	181	171	-10
Axborot va aloqa	115	113	-2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	134	124	-10
Boshqa faoliyat turlari	396	330	-66


***Ma'lumot uchun:** 2023-yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:*




**Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**

	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
Andijon sh.	1 033	966	-67
Andijon t	517	419	-98
Asaka	437	326	-111
Shahrixon	416	250	-166
Paxtaobod	304	188	-116
Oltinko'1	260	224	-36
Baliqchi	584	241	-343
Qo'rg'ontepa	303	228	-75

2023-yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida - 966 tani tashkil etdi.



**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**  
*(yanvar-dekabr)*






2023-yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 7,2 birlikni tashkil etdi.



**Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra\*




2023-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 13,8 birlik, Xonobod shahrida 9,6 birlik, Xo'jaobod tumanida 10 birlik, Ulug'nor tumanida 9,3 birlik, Bo'ston tumanida 10,8 birlik, Baliqchi tumanida 6,3 birlikni tashkil etgan. Izboskan tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 4,7 birlikka to'g'ri keldi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



### Tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*




2023-yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan viloyat bo'yicha 7,3 birlikni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda pasayish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shaharda 11,5 birlikka, Xonobod shahrida 8,1 birlikka, Asaka tumanida 4,7 birlikka kamaygan. Jalaquduq tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 2 birlikka pasaygan.

*\*Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda).*



**2023-yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda\***



**Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)**

**Eng yuqori ko‘rsatkich**

- Andijon shahri
- 13,8 birlik

**O‘rtacha ko‘rsatkich**

- Andijon tumani
- 7,2 birlik

**Eng past ko‘rsatkich**

- Izboskan tumani
- 4,7 birlik

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)







### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 66,0 % ni tashkil qildi. (2022-yilning yanvar-dekabrida 67,1 %).

YAHMning o'tgan yilga nisbatan ulushi 1,1 % ga kamaydi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)



**2023-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>22,0</b>	<b>96,0</b>	<b>65,3</b>	<b>72,0</b>
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	28,9	90,6	66,3	40,9
Xonobod sh.	34,7	82,8	68,7	38,7
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	42,7	100,0	69,6	78,3
Andijon	82,5	100,0	72,4	70,8
Baliqchi	71,4	100,0	68,3	87,0
Bo‘ston	56,1	100,0	59,7	51,7
Buloqboshi	100,0	100,0	57,9	97,8
Jalaquduq	53,8	91,2	69,0	83,2
Izboskan	100,0	100,0	66,6	68,4
Ulug‘nor	68,6	93,3	60,5	90,1
Qo‘rg‘ontepa	48,8	100,0	52,6	64,4
Asaka	1,5	100,0	65,4	35,0
Marhamat	33,7	100,0	70,6	53,7
Shahrixon	81,2	100,0	56,6	30,1
Paxtaobod	35,1	100,0	51,9	82,9
Xo‘jaobod				

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

***Sanoatda-***

Buloqboshi (100,0 %),  
Izboskan (100,0 %),  
Shahrixon (81,2 %),  
Andijon (82,5 %),  
Baliqchi (71,4 %),  
Ulug‘nor (68,6 %),  
Xo‘jaobod (69,2 %)  
tumanlarida


***Qurilishda-***

Buloqboshi (100,0 %),  
Izboskan (100,0 %),  
Shahrixon (100,0 %),  
Andijon (100,0 %),  
Baliqchi (100,0 %),  
Xo‘jaobod (100,0 %)  
Bo ‘ston (100,0 %)  
tumanlarida


***Xizmatlarda-***

Marhamat (70,6 %),  
Xo‘jaobod (72,2 %),  
Andijon (72,4 %),  
Oltinko‘l (69,6 %),  
Jalaquduq (69,0 %),  
Xonobod (68,7 %)  
Baliqchi (68,3 %)  
tumanlarida

2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 340,9 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 29,4 foizini tashkil etdi.




**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da 2023-yil yanvar-dekabr holatiga\***




2023-yil yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqbohi tumanida – 100,0 %, Izboskan tumanida – 99,9 %, Marhamat tumanida – 76,7 %, Andijon tumanida – 81,6 %, Ulug'nor tumanida – 83,9 %, Shahrixon tumanida – 70,7 %, Paxtaobod tumanida – 80,9 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 4,9 % ni tashkil etdi.

\*dastlabki ma'lumot

2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 618,6 million AQSh dollarini yoki umumiy import hajmining 16,0 foizini tashkil etdi.



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**




2023-yil yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida – 100,0 %, Izboskan tumanida – 100,0 %, Ulug'nor tumanida – 99,4 %, Shahrixon tumanida – 99,1 %, Jalaquduq tumanida – 98,4 %, Paxtaobod tumanida – 78,2 % va Bo'ston tumanida 90,4 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 0,6 % ni tashkil etdi.




2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 16 211,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



**2023-yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, (mlrd. soʻm)**




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (2 943,9 mlrd. soʻm), Xoʻjaobod tumani (2 024,8 mlrd. soʻm), Izboskan tumani (1 302,7 mlrd. soʻm), Qoʻrgʻontepa tumani (1 331,1 mlrd. soʻm) va Baliqchi tumani (1 499,2 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Marhamat tumanida (246 mlrd. soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past boʻlib qolmoqda.



2023-yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 22,0 foizni tashkil etdi.



2023-yil yanvar-dekabr holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqbooshi (100,0 %), Izboskan (100,0 %), Shahrixon (81,2 %), Andijon (82,5 %) Baliqchi (71,4 %), Ulug'nor (68,6 %) va Xo'jaobod (69,2 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (1,5 %) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 21 235,6 mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 93,8 foizini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,7 foizni tashkil qildi.



**2023-yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati**




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (5 369,8 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (2 948,4 mlrd. soʻm), Asaka tumani (1 918,1 mlrd. soʻm) va Qoʻrgʻontepa tumani (1 543,4 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.



2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 7 144,0 mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 96,0 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,5 foizni tashkil qildi.




**2023-yilning yanvar-dekabrda tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**




Tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (2 269,8 mlrd. so'm), Andijon tumani (915,3 mlrd. so'm), Shahrixon tumani (511,4 mlrd. so'm), Oltinko'l (444,9 mlrd. so'm) hamda Paxtaobod tumanlarida (380,7 mlrd. so'm) qayd etildi.




2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14 227 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 65,3 foizini tashkil qildi. 2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 10,1 foizga oʻsdi.



### 2023-yilning yanvar-dekabrda tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Andijon shahri (5 202 mlrd. soʻm), Asaka tumani (1 038,9 mlrd. soʻm), Andijon tumani (958,6 mlrd. soʻm), Baliqchi tumani (809,8 mlrd. soʻm) va Xoʻjaobod tumani (798,4 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.




2023-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,2 foizni tashkil etdi. 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 foizni tashkil qildi.


2023-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 74,6 foizni tashkil etgan bo'lib, 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 foizni tashkil qildi.



2023-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,0 foizni tashkil etib, bu esa 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 102,3 foizga ko'payishiga olib keldi.



2023-yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,4 foizni tashkil etib, 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 104,2 foizga ko'payish kuzatildi.



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari (tadbirkorlik sub'ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

**Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini** muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

**Chakana savdo bu** – oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

**Ulgurji savdo bu** – katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

**Kichik va o'rta biznes**\_- mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes sub'yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkiclardan foydalaniladi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.